<i>Abduvaliyev Xurshid Abduxayitovich</i>	
Milliy kurash sport turi mutaxassislarini tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	3133
<i>Aminova Aziza Alidjanovna</i>	
Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini tevarak-atrof bilan tanishtirishda ekologik qadriyatlarining roli.....	3137
<i>Ernyazova Manzura Amankeldi qizi</i>	
Fe'l mavzusini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	3141
<i>Kurbanova Gulzoda Yunusovna, Yo'ldosheva Sabina Toshpo'lot qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida fiziologiya fanini o'qitishda raqamli axborot texnologiyalaridan foydalanish.....	3144
<i>Majidova G. D.</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik asoslari.....	3147
<i>Qodirov Adhamjon Sharifjon o'g'li</i>	
XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli.....	3152
<i>Rajabova Nodirabegim Komilovna</i>	
Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining jismoniy sifatlarini maxsus mashqlar va zamonaviy texnologiyalar yordamida rivojlantirishning ilmiyamaliy jihatlari.....	3156
<i>Sirojov Otajon Orifjonovich</i>	
Kasbiy ta'lim tizimida ish beruvchi ishtirokini institutsionallashtirish mexanizmlari.....	3160
<i>Sodiqova Gulnora Ergashaliyevna</i>	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyutsiyasi: klassik va zamonaviy falsafa.....	3164
<i>Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich</i>	
Профессиональные и личностные качества учителя начального образования в области эстетической подготовки.....	3168
<i>Дустова Дилдора Собиржановна</i>	
Теоретические мысли о воспитании личности.....	3173
<i>Нуъмонова Сайёра Учкуневна</i>	
Gimnastikaning sog'lomlashtirish turlari.....	3176
<i>Turg'unboyev Mansurbek Mamarafiqovich</i>	
Zamonaviy oliy ta'limda falsafa fanini integratsiyalash orqali talabalar ma'naviy kompetensiyasini rivojlantirish.....	3183
<i>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</i>	
Oliy ta'limda erkin vohidov hayoti va ijodini o'rganishning samarali metod va usullari.....	3187
<i>Ermatova Shohista Abdusalomovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirish: psixologik-pedagogik va metodik xususiyatlari.....	3192
<i>X. M. Xujamatova</i>	
Suv tejamkor sug'orish texnologiyalarini o'qitishda integratsiyalashgan ta'lim modeli.....	3197
<i>Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna</i>	
Роль цифровых технологий в подготовке профессиональных кадров.....	3201
<i>Жаҳонгир Қосимов</i>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning metodik asoslari.....	3206
<i>Xursandova Dilafuz Saidovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Bo'lajak muhandislarga grafik va mutaxassislik fanlarini integrativ yondashuv asosida o'qitish afzalliklari va samaradorlik omillari ..... 3210 <b>Nasritdinova Umida</b>	3210
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining jamoada sog'lom raqobatli muhitni yaratishdagi roli..... 3215 <b>N. J. Abdusamatova, M.Q. Muxiddinova</b>	3215
	Madaniy kompetentlikni rivojlantirishda daxldorlik fazilatining o'rni va ta'siri..... 3219 <b>E. U. Shermanov</b>	3219
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy faoliyat orqali mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantirishning zamonaviy usullari ..... 3222 <b>Izzatilloeva Sabina Ilhom qizi</b>	3222
	Talabalarda ekologik-iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning transformatsiyasi ..... 3225 <b>Rasulxujayeva Madina Axmadjanovna</b>	3225
	Umumiy gigiyena fanini o'rganishda zamonaviy interfaol pedagogik usullardan foydalanib dars o'tishning samaradorligi..... 3229 <b>Utamuradova Nigora Abduraxmanovna</b>	3229
	Milliy qadriyatlar asosida talabalarga pedagogik madaniyatni shakllantirish..... 3233 <b>Karimova Nilufar Xudoyberdiyevna</b>	3233
	Hayot faoliyati xavfsizligi fanining texnik ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati ..... 3237 <b>A. G'. Mamadaliyev</b>	3237
	Akademik litseylarda o'quvchilarning axborotni xavfsiz qidirish kompetentligini rivojlantirishning mazmuniy izohlanishi ..... 3240 <b>Aziz Dustboboyev</b>	3240
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda rolli o'yinlar orqali empatiya ko'nikmalarini shakllantirish..... 3244 <b>Barno Masharipova Erkin qizi, Nizamatdinova Shirin</b>	3244
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishida she'riy asarlar va syujetli-rolli o'yinlarning ta'siri ..... 3248 <b>Barno Masharipova Erkin qizi, Yuldasheva Shoxida Botirovna, Aytmuratova Komila Atamuratovna</b>	3248
	Pedagog kadrlarni malakasini oshirishda xorijiy tajribaning roli ..... 3252 <b>Karimov Norboy G'aniyevich</b>	3252
	Formation of Methodological Foundations for the Formation of Professional Competence of Future Engineers ..... 3255 <b>Khursandova Dilafuz Saidovna</b>	3255
	Kredit-modul tizimida talabalarining o'z-o'zini boshqarish va o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishning psixologik mexanizmlari ..... 3258 <b>Muxlisov Sodiqjon Sayidjonovich</b>	3258
	Fizika laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ..... 3264 <b>Rustamov Ilyos</b>	3264
	Inklyuziv sinflarda rus tilini o'qitishda differensial va individual yondashuvlar ..... 3266 <b>Alijonova Fotima Nabiyevena</b>	3266
	Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligida evristik yondashuvning innovatsion ahamiyati ..... 3270 <b>Jo'rayev Muzaffarjon Mansurjonovich, Axmadjonova Nodirabegim Sharibjon qizi</b>	3270
	Bo'lg'usi pedagoglarda nostandart testlarni yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari ..... 3274 <b>Jo'rayev Muzaffarjon Mansurjonovich, Adxamova Sitara Abrorjon qizi</b>	3274
	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga imon-e'tiqod tarbiyasini berishda Sharq mutafakkirlarining merosidan foydalanish (Alisher Navoiy asarlari vositasida)..... 3277 <b>G'ayratova Rushana</b>	3277
	Организация и методы исследования игровой деятельности как условие развития личности детей раннего дошкольного возраста..... 3281 <b>Акрамова Муниса Олимхон кизи</b>	3281
	Maxtumquli Firog'iy pand-nasihatlarida komil inson g'oyasining pedagogik talqini..... 3285 <b>Raximova Aziza Davranbekovna</b>	3285
	Talabalarining ijodiy faoliyatida inklyuziv ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalar va sog'lom bolalar orasida do'stlik muhitini shakllantirish..... 3288 <b>Jo'rayev Muxriddin Muyiddinovich</b>	3288
	O'quvchilar ijodkorligini mustaqil topshiriqlar asosida shakllantirishning pedagogik omillari..... 3291 <b>Mavlonova Hilola Jahongir qizi</b>	3291
	Pedagogning kasbiy deformatsiyalarini oldini olish va korreksiyalash yo'llari ..... 3295 <b>Karimova Nilufar Raimjonovna, Avazbekova Gulzoda Anvarjon qizi</b>	3295
	Boshlang'ich sinflarda kollaborativ yondashuv muhitini shakllantirishning ahamiyati ..... 3299 <b>Davlatova Muaddam Baxriddinovna</b>	3299
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirishning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari ..... 3304 <b>Axmadxonova Zuxra Sidiqboy qizi</b>	3304



Maktabgacha ta'lim tashkilotida uslubchi va tarbiyachilar faoliyatida o'quv-metodik faoliyatni tashkil etish .....	3309
<b>Abdug'opirova Feruza Akramjon qizi, Akbarova MushtariyTolibjon qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning umumiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy usullari .....	3313
<b>Abdullayeva Ozoda Safibullayevna, Yoqubboyeva Sayyora Abdug'ani qizi</b>	
Talabalarda tanqidiy tafakkur tushunchasini rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....	3316
<b>Darvishxojayev Xasan Abdulxakimovich</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida uslubchi va tarbiyachi faoliyatida o'quv-metodik faoliyatni tashkil etish ...	3320
<b>Najmidinova Zulayxo Zakirjonovna</b>	
Организация учебно-методической деятельности методиста и воспитателей в дошкольной образовательной организации .....	3324
<b>Сагетдинова Гульнара Ахтямовна</b>	
Innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida shaxs va pedagog rivojlanishini samarali ta'minlash tamoyillari.....	3329
<b>Abdullayeva Nilufar Maxamadjanovna</b>	
Этические проблемы и регулятивные подходы к использованию искусственного .....	3336
<b>Зиявиддинова Зухра Абдугафуровна</b>	
O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning falsafiy va ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	3341
<b>Pardayev Baxtiyor Mustofoyevich</b>	
Maktabgacha yoshdagi autistik spektr buzilishli bolalarga korreksion-pedagogik ish usullarining ta'sirini takomillashtirish .....	3345
<b>Qosimova Nafosat Jahongir qizi</b>	
Oliy ta'limida mobil texnologiyalarning foydalanish metodikasi .....	3349
<b>Xakimov Murodbek Akramovich</b>	
Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining tarbiyaviy samaradorligi.....	3353
<b>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</b>	
Fortepiano va klavish cholg'ularida ijro etish didaktikasi hamda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining cholg'u ijrochiligi kreativligini rivojlantirishning pedagogik nazariyalari .....	3358
<b>Normuminova Gulmira Komiljonovna</b>	
Pedagogik treninglarning mazmuni va ularning o'quvchilarda ijobiy munosabatni shakllantirishdagi o'rni...	3366
<b>Oljaboyeva Fotima Usmonjon qizi</b>	
Yakka mashg'ulotlarda ruhiy rivojlanishi sustlashgan kar bolalarni mantiqiy tafakkuri va sensor etalonlarini rivojlantirish .....	3369
<b>Pulatova Saodat Maxamadaminovna</b>	
Ota-ona va o'qituvchilar hamkorligining 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligiga bevosita ta'siri.....	3373
<b>Qo'yliyeva Fotima Ulug'bek qizi</b>	
Raqamli pedagogik kompetensiya haqida qarashlar va uning ahamiyati.....	3377
<b>Tillaboyeva Mahfuza Muhammedovna</b>	
Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari .....	3381
<b>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari ....	3383
<b>Xudaybergenova Zamira Israqovna</b>	
O'quvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish.....	3386
<b>Yaqubova Dinora Bahodirovna</b>	
"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili.....	3391
<b>Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich</b>	
Uyushmagan yoshlarning mediasavodxonligini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik texnologiyalari.....	3395
<b>Muxtarov Otabek Shuxratjonovich</b>	
Innovative Methods for Improving Psychological Conditions of Deaf Children in Teaching English.....	3398
<b>Nabiyeva Nodira Rustamjon qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bayon yozishga o'rgatish orqali yozma nutqini shakllantirish usullari...	3401
<b>Holikulova Feruza Xasanovna</b>	
EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlari o'rganilganlik darajasi va mazmun-mohiyati .....	3407
<b>Umarova Go'zalxon Botirjonovna, Jalolova Saltanat Jasur qizi</b>	
Qo'shma ta'lim va xalqaro talabalar almashinuvi .....	3410
<b>Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich</b>	
A Theoretical Review of Foreign Students' Adjustment to the Digitalization of Education .....	3414
<b>Khojimurodov Burkhon Ravshanovich</b>	



# BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BAYON YOZISHGA O'RGATISH ORQALI YOZMA NUTQINI SHAKLLANTIRISH USULLARI



Holikulova Feruza Xasanovna  
 Navoiy davlat pedagogika instituti  
 Boshlang'ich talim kafedrasida dotsenti, pf.d.(DSc)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, ona tili va o'qish darslarida bayon o'tkazishga qo'yiladigan talablar, xususan, so'z ma'nolari ustida ishlash, reja tuzish, og'zaki va yozma qayta hikoyalashni tashkil etish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, multimedia vositalarining bayon o'tkazishdagi ahamiyatiga ham o'rin berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim bosqichlari, intellektual salohiyat, bayon, nutq, matn, lug'at, so'z ma'nolari, reja, qayta hikoyalash, multimedia, elektron qo'llanma.

**Abstract:** This article examines the development of students' coherent speech in primary education, the requirements for written narration in mother-tongue and reading classes, particularly work on word meanings, planning, as well as the organization of oral and written retelling. In addition, the importance of multimedia tools in the narration process is highlighted.

**Key words:** educational stages, intellectual potential, narration, speech, text, vocabulary, word meanings, plan, retelling, multimedia, electronic guide.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы развития связной речи учащихся в начальной школе, требования к изложению на родном языке и занятиям по чтению, в частности работа над значениями слов, планированием, а также организация устного и письменного пересказа. Также уделяется внимание значимости мультимедийных средств в процессе повествования.

**Ключевые слова:** образовательные этапы, интеллектуальный потенциал, изложение, речь, текст, словарный запас, значения слов, план, пересказ, мультимедиа, электронное пособие.

## KIRISH

Bayonning savodli, mantiqiy izchillikda va mazmunli yozilishida reja tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darsliklarida reja tuzish masalasiga doir izchil yondashuvlar kuza-tiladi. Reja tuzishdagi dastlabki ishlar tarkibiga matnning tugallangan qismlari asosini aniqlash, ushbu qismlarga mos qisqa va aniq sarlavha qo'yish, shuningdek, ularni reja sifatida shakllantirish kabi vazifalarni kiritish mumkin. Jumladan, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan 206-mashq sharti quyidagicha ifodalangan: "O'qing. Matnni qismlarga bo'ling. Har bir qism asosida reja tuzing. Reja asosida mazmunini qayta hikoyalab bering". "Bir kishi ombor atrofida yotgan chigitlarni sigirga beribdi. Ular ichidan bitta chigit qochib, omborga kiribdi. Inoq chigitlar orasiga kirib, uyquga ketibdi. Chigitlar bahorgacha uxlabdilar. Bahorda mehnatkash dehqonlar chigitlarni yuvintirib, cho'miltirib, dalaga ekibdilar. Hademay shoshqaloq chigitlar ko'm-ko'k g'o'zalarga aylanishibdi. Ular oppoq paxta bo'lib ochilishibdi. Oxurdan qochgan chigit paxtalar orasida yotgan mitti chigitlarga qarab nasihat qilibdi: – Chigitlar, bir-biringizdan aslo ajralmanglar. Ajralganni sigir yeydi-da". (A. Abdurazzoq) (86-b.).

Navbatdagi bosqich tanlab o'qish bo'lib, bunda o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga o'quvchilar matndan javob bo'ladigan o'rinlarni topib o'qiydilar. Reja tuzish jarayoni 1-sinflarda kichik matnlarga so'roq gap tarzida sarlavha qo'yish orqali; 2-sinflarda so'roq yoki darak gap shaklida; 3-sinflarda jamoa bo'lib; 4-sinflarda esa mustaqil tarzda amalga oshirilishi bilan bosqichma-bosqich murakkablashtirib boriladi. Reja tuzishda rasmlardan foydalanish o'quvchilarning tasavvurini oydinlashtiradi. Bunda o'quvchilar dastlab darslikdagi rasmlardan matn qismlariga mos keladiganlarini topishga va ularni nomlashga o'rgatiladi.

Reja tuzish quyidagi tartibda olib boriladi:

1. O'qituvchi namunasi asosida. O'qituvchi tomonidan tuzilgan reja bandleari o'rinlari almashtirilgan holda sarlavha tarzida doskaga yozib qo'yiladi. Matnning birinchi qismi o'qilgach, o'quvchilar reja ichidan unga mos nomni topishlari lozim bo'ladi. Jarayon shu tariqa davom ettirilib, matn rejasi tayyor holga keltiriladi.
2. Hamkorlikdagi faoliyat asosida. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan har bir qismdagi asosiy g'oya aniqlanadi, sarlavha qo'yiladi va doskaga yoziladi.
3. O'quvchining shaxsiy faoliyati asosida. Bunda qismlarga bo'linmagan matndan foydalaniladi. Sarlavhalar matn rejasi tartibida doskaga yozib qo'yiladi. O'quvchilar ushbu sarlavhalar asosida matnni qismlarga ajratadilar.
4. Matnga ijodiy yondashuv asosida. Qismlarga bo'linmagan matnga oid sarlavhalar aralash holda doskaga yoziladi. O'quvchilarga matndagi tugallanmagan qismni aniqlash va unga mos nomni tanlash vazifasi topshiriladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida bayonga, asosan, matn mazmunini qisqartirib hikoya qilish yoki qayta hikoyalash tarzidagi topshiriqlar berilishi orqali e'tibor qaratilgan. Ona tili darsliklarida esa mazkur masalaga nisbatan jiddiyroq yondashilgan. Albatta, bunda fanni o'qitishdan ko'zlangan maqsad mohiyatidan kelib chiqilgan. Ona tilini o'qitishda matn mazmunini o'zlashtirishga doir savollarning keltirilishi, matnni qayta hikoyalash, matnni to'liq qayta hikoyalash, reja tuzish, sarlavha topish kabi o'zaro bog'liqlikdagi topshiriqlarning kiritilganligini qayd etish mumkin.

Qayta hikoyalashda asarning janr xususiyati ham muhim hisoblanadi. Xususan, nasriy asarlarga nisbatan lirik namunalaridagi g'oya va mazmuni ifodalash birmuncha murakkablik tug'dirishi sir emas. Bu esa lirik asarning yetakchi xususiyatidir. Masalan, 4-sinf o'qish darsligidagi Q. Hikmatning "Bahor" she'rini o'rganishda qayta hikoyalashga xos topshiriq elementlarining uchrashi o'quvchilarning epitet (sifatlash), jonlantirish, o'xshatish, majoz va metafora (istiora) kabi tilning maxsus tasviriy vositalarini matndan aniqlay olish, lug'at boyligini oshirish hamda ijodiy qobiliyatining takomillashuvida muhim omillardan biri hisoblanadi:

#### Bahor

*Uchib yurar mayin shamollar,  
Yelpib-yelpib anhor yuzini.  
Qirg'oqlarda soyabon tollar  
Oyna-suvda ko'rar o'zini.  
Tong yellari o'ynoqlab sekin,  
Jiydazorga kirib yo'qolar.  
Maysa o'tlar tebranib sekin,  
Orqasidan kuzatib qolar.  
Chumchuqlarning og'zida cho'p-xas,  
In qo'yishar tutlar ustiga.  
Ko'kni quchgan teraklar tinmas,  
Oro berar kulrang po'stiga.  
Bedapoya yam-yashil o'tloq,  
Chinorlarda qushlar chug'urlar.  
Ko'klam ko'rkin ko'rdingmi, o'rtoq,  
Chamanzordek hammayoq gullar.*

She'r tahliliga doir "Mayin shamollar", "soyabon tollar", "tong yellari", "o'tlar tebranib", "ko'kni quchgan teraklar" iboralaridan foydalanib, bahor tasvirini qayta hikoya qiling<sup>1</sup> topshirig'i nafaqat qayta hikoyalashni, balki she'rda qo'llanilgan tasviriy vositalar orqali undagi ma'no tovlanishlarini anglashga zarur bo'lgan usul va metodlarni ham taqozo etadi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda "Mosini top" o'yini imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarga har bir bandeda mavjud tasviriy-ifodaviy vositalar bo'yicha ta'riflar yozilgan jadvallar tarqatiladi. O'quvchilar ta'riflarni o'qib, ularning qaysi tasviriy vositaga tegishli ekanligini aniqlaydilar. So'ngra jadvaldagi bo'sh qoldirilgan katakchalarga she'rdagi tasviriy vositalar va ularning turini qayd etadilar. Masalan, mayin shamollar, yelpib-yelpib anhor yuzini, soyabon tollar va h.k.

1 Matchonov S. va boshq. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo'l polygraph servis, 2020. – 105-b.



№	She'rdagi qo'llanilgan tasviriy vosita	Tasviriy vosita nomi	Ta'rifi
2	Mayin shamollar	Sifatlash (epitet)	Narsa-hodisaning belgisini obrazli ifodalaydigan badiiy aniqlovchi.*
1	...	...?	Jonsiz narsa-hodisalarga inson, umuman, jonli mavjudotga xos sifatlarning berilishi; shuningdek, jonivorlarga insonga xos sifatlarning berilishi ham jonlantirishning bir ko'rinishi sanaladi.

\* Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 103-б.

Ta'kidlash joizki, ona tili fanini o'qitish amaliyotida mazkur ish turining og'zaki va yozma shaklda o'tkazilishi, yozma bayonning ta'limiy va tekshiruv tarzida amalga oshirilishi belgilangan. E'tibor qilinsa, boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida ta'limiy bayonning, asosan, ijodiy mazmundagi (shaxsni o'zgartirish, lisoniy topshiriqli, tasvir unsurlarini kiritish, shuningdek, boshlab berish yo'li bilan yozish) turlarini o'tkazishga doir topshiriqlarga urg'u qaratilgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shaxsini o'zgartirib qayta hikoyalash o'quvchilarda gaplarni qayta tuzish malakasini rivojlantiradi. Bunda I shaxs tilidan berilgan hikoya III shaxs tilidan qayta bayon qilinishi, matndagi gaplar kesimining o'zgartirilishi, hikoya qiluvchi shaxs nomining hamda "u" yoki "ular" kabi kishilik olmoshlarining qo'llanilishi, dialoglarning o'zlashtirma gaplarga aylantirilishi mumkin. Bunday mazmundagi matn darslikdagi 254-mashq shartida ham uchratish mumkin bo'lib, unda "u" va "ular" kishilik olmoshlari qaysi so'zlarning o'rnida qo'llanilganini aniqlash vazifasi berilgan. Masalan: "Bahorgi ta'tilda men, Murod oromgohga bordik. Biz tabiat qo'ynida maza qilib dam oldik. – Ahmad, sen oromgohda qaysi to'garakka qatnashding? – Ahmad shaxmatni sevadi. U shaxmat to'garagiga qatnashdi, – dedi Shuhrat. Dilshod, Temur, Gulnoralar maktab oromgohida bo'lishdi. Ular oromgohda sport musobaqasida ishtirok etishdi. Siz ta'tilda qayerda bo'ldingiz?". (105-b.)

Matn topshirig'iga ko'ra, I shaxsdagi otga ism qo'yilishi, kishilik olmoshlarining shaxs otlariga almashtirilishi yoki aksincha, so'zlovchining nutqining o'zga nutqqa aylantirilishi taqozo etiladi. Jumladan, "Bahorgi ta'tilda Karim va Murod oromgohga borishdi. Ular tabiat qo'ynida maza qilib dam olishdi" jumllarida "bordik (biz)" fe'li "borishdi (ular)", "dam oldik (biz)" fe'li "dam olishdi (ular)" shakliga o'zgargan bo'lib, "biz" olmoshi o'rnida "ular" olmoshi qo'llanilgan, ya'ni I shaxs ko'plik shakli III shaxsga o'tgan. Demak, o'quvchilar ushbu jarayonda so'z turkumlariga xos grammatik xususiyatlarni takrorlash va mustahkamlashga ham erishadilar.

Hikoyadagi biror personaj tilidan qayta hikoyalash o'quvchidan nutq me'yorlarini o'zlashtirish, qahramon qiyofasiga kira olish, muallif uslubini tahlil qilish kabi ilk ijodiy izlanishlarga debocha vazifasini o'taydi. Masalan, 347-mashq shartidagi hikoyada matn kimning tilidan bayon qilinganini aniqlash, matnning necha qismdan iboratligini belgilash, unga reja tuzish va reja asosida mazmunini to'liq hikoyalashga yo'naltiruvchi topshiriqlar bolalarda o'zgalarning gapini "oqizmay-tomizmay" yetkazib berish ko'nikmasini foydali faoliyatga yo'naltirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. "Hovliga chiqdik. Yo'lakda bir chumchuq bolasi og'zini kappa-kappa ochmoqda. Bir oyog'i singan. Bahodir ikkimiz chumchuq bolasining singan oyog'iga qog'oz o'radik. Ip bilan bog'ladik. Botinka qutichasiga solib, uy tokchasiga qo'ydik. Bahodir pashsha tutib berdi. Bahrom non uvog'i bilan boqdi. Qushcha uy ichida aylanib uchadigan bo'ldi. Bola chumchuq ona chumchuqning ovozin eshitib, chirqillay boshladi. Uni onasini sog'inib yig'layapti, deb o'yladik. Chumchuqqa rahmimiz keldi. Bahrom uni asta qo'liga oldi-da, uchirib yubordi". (144-b.)

Bolalar matn bilan tanishish jarayonida unda ishtirok etayotgan qahramonlarni aniqlashi, ularning nutqini belgilashi, har bir personaj nutqidagi betakrorlikni o'ziga xos tarzda "o'ziniki" qilib, ifodali, aniq va ravon talqin etishi lozim. Matn ijodiy to'ldirib qayta hikoyalash asosan og'zaki tarzda amalga oshirilib, o'quvchilarning matn mazmunini chuqur tushunishi va uni ijodiy to'ldirib bayon etishini ko'zda tutadi. Masalan, 203-mashq shartida "O'qing. Matn mazmunini yong'oq haqida eshitganlaringiz bilan boyitib, qayta hikoya qiling" topshirig'i berilgan: "Tusi va ta'mi turlicha bo'lgan, dumaloq, qattiq po'choq bilan qoplangan meva yong'oq deb ataladi. Ko'pchilik oddiy yong'oqni xush ko'rib iste'mol qiladi. Uning burushuq mag'zi silliq po'choq bilan qoplangan. Ba'zi yong'oqlar qisman uzunroq shaklda bo'ladi. Qadim zamonlarda Sharq hukmdorlari yong'oqni u o'smaydigan yurtlarning podshohlariga qimmatbaho sovg'a sifatida yuborishgan". (85-b.)

Mashq shartini bajarish jarayonida daraxtning vegetatsiya davri, oziq-ovqat va tibbiyot sohasida, shuningdek, parfyumeriya hamda mashinasozlik sanoatida uning mevalari, bargi, po'stlog'i, yog'ochi va g'ud-dasidan ma'lum maqsadlarda foydalanilishi haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni keltirish, izohli lug'atlar va ensiklopediyalardan foydalanish o'quvchilarning o'rganilayotgan obyekt haqidagi bilimlarini kengaytiradi hamda fanlararo integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'z bilan tasvirlash savol-topshiriqlar tarzida yoki matndagi tabiat tasviri, qahramonlarning tashqi ko'rinishi yoxud portretini so'z orqali tasvirlash topshirig'idan iborat bo'lishi mumkin. Bu kabi ish turlari, asosan, og'zaki bajarishga mo'ljallangan bo'lsa-da, ayrim hollarda bayon shaklida ham o'tkaziladi. Masalan, 206-mashq sharti o'zida so'z bilan tasvirlash talabini to'liq aks ettiradi. "Matnni o'qing. (Qushning rasmi berilgan)

"Bir kuni dangasa chittakka baxt kulib boqibdi. Qishning o'rtalarida tekinxo'r chittak mehnatkash chumchuqning bo'sh inini topib oldi. Inga yumshoq momiq to'shalgan edi. U uchirma bo'lgandan beri birinchi marta iliq va bexavotir joyda uxladi. Erta tongda chumchuqlarning shodon ovozi chittakni uyg'otib yubordi. Bechora chittak nima qilishini bilmay qoldi. ("G'uncha"dan) Chittakning ko'rinishini tasvirlab bering. Chittakni tasvirlashda nimalardan foydalandingiz? Shu sifatlarini yozing. Sifatlar qanday ma'no bildiryapti". (86-b.) Ko'rinadiki, so'z bilan tasvirlash tasavvur va fantaziyani ishga solib fikr ifodalashga, og'zaki nutq hamda dunyoqarashni uyg'unlikda shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik vositalardan biri hisoblanadi. Metodistlar orasida bayon matnidagi so'zlar hajmi masalasida turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, A. Zunnunovning fikricha, "bayon o'tkazishda so'zlar hajmini aniq belgilab qo'yish o'qituvchining erkin harakatini cheklab qo'yishi mumkin. Shu sababli bunday qat'iy chegara qo'yish maqsadga muvofiq emas, deb o'ylaymiz, chunki bu diktant emas, balki uslub (stil) va fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan o'ziga xos yozma ishdir".<sup>2</sup>

Haqiqatan ham, bu masalaning muhim jihatlaridan biridir. Biroq bizningcha, uning boshqa tomoni ham mavjud bo'lib, u darsga ajratilgan vaqt, yozma ish uchun mo'ljallangan soat, sinfning o'zlashtirish darajasi, o'quvchilarning bilish jarayonlari rivoji hamda matnning xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Zero, matn ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan, yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan hamda axloqiy-estetik tarbiya mezonlarini o'zida mujassam etgan bo'lsa-da, undagi so'zlar hajmi o'quvchining individual va psixologik xususiyatlariga mos kelmasa, kutilgan samarani bermasligi tayin. Yuqori sinf o'quvchilariga mazmunan salmoqli, ammo hajman mos kelmaydigan matnning yoki kichik yoshdagi bolalarga hajman katta, biroq tarbiyaviy jihatdan sayoz materiallarning berilishi maqsadga muvofiq emasligi yaxshi ma'lum. Matndagi so'zlar miqdori, albatta, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tanlanishi lozim. Bu borada K. Qosimova ta'kidlaganidek, "boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish sur'ati sekin bo'lgani sababli bayon yozish uchun kichik hajmli, kompozitsiyasi sodda, tili jihatidan mos matn tanlanadi. Bayon matni asta-sekin murakkablashtirib boriladi: dastlab hikoya tarzidagi bir lavhani ifodalovchi matn tanlanadi, keyinchalik unga qo'shimcha lavhalar va tasvir elementlari kiritiladi, qatnashuvchilar soni ko'paytiriladi, muhokama unsurlari qo'shiladi, so'ngra shaxsni o'zgartirib bayon yozishga o'tiladi. Natijada bayon asta-sekin ijodiy tus ola boradi".<sup>3</sup>

Fikrimizcha, sinflar kesimida tanlanadigan matnlarning mazmuni va hajmi ona tili fanidan Davlat ta'lim standartida belgilangan malaka talablariga muvofiq bo'lishi zarur. Bayon matnidagi so'zlar miqdori o'quvchining lug'at boyligini oshirish, tafakkurining kengayishi hamda tasavvurining teranlashuviga muayyan darajada xizmat qiladi. So'nggi yillarda ona tili ta'limini multimedia vositalari, elektron o'qitish (E-learning) hamda aqlli ta'lim (Smart Education) texnologiyalari asosida tashkil etishning samarali jihatlari kuzatilmogda.

Bu masalalar X. Muhitdinova<sup>4</sup>, S. Muhamedova<sup>5</sup>, O. Mo'minova<sup>6</sup>, Sh. Yuldasheva<sup>7</sup> tomonidan o'quv jarayonini elektron muhitda tashkil etish orqali ona tili ta'limi samaradorligini oshirish bo'yicha bildirilgan ilmiy tavsiyalarda alohida ta'kidlangan. Shuningdek, M. Isroilova<sup>8</sup> va S. Kambarovalarning tadqiqotlarida badiiy matn ustida ishlash jarayonida pedagogik dasturiy vositalar asosida virtual laboratoriyalar tashkil etish, veb-sayohatlar uyushtirish hamda panoramik tasvirlardan foydalanishning samarali jihatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Interfaol metodlar asosida tashkil etiladigan noan'anaviy bayonlar o'tkazishda pedagogik dasturiy vositalar orqali multimedia-galereyalar va panoramik tasvirlar ishlab chiqish, asar mazmuniga oid veb-sayohatlar uyushtirish, virtual borliq imkoniyatlaridan unumli foydalanishning qator samarali jihatlari mavjud. K. Tursunmetovning qayd etishicha, "Pedagogik dasturiy vositalar (PDV) – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri bo'lib, unda zamonaviy texnologiyalar o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga eri-

2 Zunnunov A., Turdiev B. Baenlar tuplami. – Toshkent: Ukituvchi, 1993. – 10-6.

3 Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 325-b.

4 Muhitdinova X. Til ta'limiga videomateriallar qanday yuqunlashadi? // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2015. – № 8. – 15–16-b.

5 Muhamedova S.X., Yuldasheva S.H. Pedagogik dasturiy vositalar va til ta'limi / Uzbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent, 2016. – B. 113–116.

6 Mo'minova O. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2019. – № 1. – 27–28-b.

7 Yuldasheva Sh. Interfaol diktant – savodxonlikni baholashning elektron tizimi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2019. – № 1. – 35–36-b.

8 Isroilova M. Lotin tili uchun o'qitish jarayonida tibbiyot o'liy ta'lim muassasasi talabalarini intellektual-madaniy rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dok. (PhD) diss. avtorref. – Toshkent: 2018. – 17-b.



shishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulotlar (dasturlar majmuasi), texnik va metodik vositalar hamda qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi".

Yozma ishlarni tashkil etishda pedagogik dasturiy vositalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- matn mazmuniga oid harakatlanuvchi tasvirlar yaratish;
- matndagi lavhalarni tovush uyg'unligida harakatlantirish;
- matn mazmunini o'quvchilar tasavvurida aniq jonlantirish;
- ko'rish va eshitish qobiliyatini uyg'un holda rivojlantirish;
- bilim olish bilan bir qatorda o'ynash va hordiq chiqarish;
- fan asoslariga qiziqish uyg'otish;
- o'quvchilar faolligini oshirish;
- jamoada qulay ijodiy muhit yaratish;
- organizmdagi zo'riqishlarni bartaraf etish va hokazo.

Axborotlashgan tezkor davr nafaqat darsliklarning, balki ona tili o'qitishda "Diktantlar to'plami" yoki "Bayonlar to'plami"ning elektron variantiga ehtiyojni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda an'anaviy "Bayonlar to'plami"ning elektron variantini yaratish bog'lanishli nutq va ijodiy tafakkurni o'stirishda muhim o'rin tutadi. Elektron qo'llanmalar ham bosma nashrlar kabi o'zida ilmiy-metodik, didaktik va psixologik talablarni mujassam etishi zarur. Elektron shakldagi "Bayonlar to'plami"ning mazmuni, tuzilishi, ifoda tarzi va didaktik ta'minoti o'quvchilar psixologiyasiga mos holda rejalashtirilmasa, ona tili o'qitishni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish maqsadiga erishib bo'lmaydi.

Elektron qo'llanma yaratishda bayon uchun tanlangan material, axborot yoki ularni o'zlashtirishga doir topshiriqlarning matn, grafika, audio, video va animatsiya kabi multimedia vositalari orqali kompleks berilishi; ma'lumotlarni izlash va jo'natish; o'quvchilar bilim darajasini nazorat qilish; ta'lim sub'ektlari orasidagi hamkorlikni ta'minlash kabi bir qator talablar e'tiborga olinadi.

Elektron "Bayonlar to'plami" quyidagi mezonlarni e'tiborga olib yaratilishi maqsadga muvofiq:

- materiallarni qisqacha bayon qilishning qulay va uslubiy jihatdan mukammal tuzilishini ta'minlaydigan, giperhavolalar tizimiga ega matnlardan foydalanish;
- uslubiy jihatdan asoslangan nisbatlarda tasvirlar, ovoz, harakat va boshqa elementlar bilan boyitilgan matnlarni qo'llash.

Bunday matn:

- materiallarini yaxshiroq o'zlashtirish o'qitish jarayonini jonlantirishga yordam beradi;
- qulay boshqara olish tizimi (matn bo'ylab erkin harakatlanish, bitta kitob matni bo'ylab yoki ko'plab kitoblar va hujjatlar orasidan turli ma'lumotlar, mundarija va alifbo ko'rsatkichlarini dastur asosida izlash, matnga turli belgilar kiritish va boshqa imkoniyatlar);
- o'quv jarayoni modellarining imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan interfaol elementlar va hokazo.

Bizningcha, bayon o'tkazishga mo'ljallangan elektron qo'llanmada matnni ovozli ko'rgazmalar orqali taqdim etish, ranglar mutanosibligi, materiallarning fazoviy joylashtirilishi, o'quvchilar diqqatini jamlash, fanga doir amaliy dasturlar, ma'lumotlar hajmining ixchamligi hamda qisqa muddatda ko'p axborot berish imkoniyati matnni tushunish va o'zlashtirish darajasini ta'minlashi lozim. Buni muayyan matnning berilishi misolida ko'rib chiqamiz.<sup>9</sup>

### Chumchuq

Dadam har bahorda hovlimizga anvoyi gullar ektirar edilar. Ularning yashnab turishini yaxshi ko'rardilar. Ammo rayhonlarni kimdir uzib ketardi. Dadam rayhonlarni qo'riqlashni menga topshirdilar. Dam olish kuni edi. Men hovlida ham dars qilib, ham rayhonlarni qo'riqlamoqchi bo'ldim. Bir mahal rayhonlar yoniga bir chumchuq keldi. Tumshug'i bilan rayhonni shart uzib olib, uchib ketdi. Men chumchuq rayhon yer ekanmi, deb hayron bo'ldim. Keyin bilsam, chumchuqlar o'z bolalarini qurt-qumursqa va chumolilardan saqlashda rayhondan foydalanar ekan. Rayhon hidiga hasharot kelmas ekan. (Olmosdan) (41-b.)

<sup>9</sup> Ruzmetova M.Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga uzluksiz tatbiq etishda elektron darsliklarning roli // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2011. – № 3. – B. 9.

Matn yuzasidan tayyorlanadigan audio yozuvda tovushlarning tembri va kuchi me'yorida bo'lishi, real va virtual ob'ektlar (hikoyachi, uning dadasi, chumchuqlar, hasharotlar)ning xatti-harakatlari o'zaro mos kelishi, predmet va narsa-buyumlar (hovli, undagi gullar) rangining o'zaro muvofiqligi, shuningdek, ayrim ranglarning (sariq va qizil ranglarni kamroq ishlatish) o'quvchi ko'rish qobiliyati va psixologiyasiga ta'siri inobatga olinib tanlanishini qayd etish mumkin.

Elektron mahsulotda imkon qadar ko'zni toliqtiradigan ranglarni kamroq ishlatish, bir-biriga uyg'un va tinchlantiruvchi ranglardan foydalanish elektron qo'llanmaga qo'yiladigan estetik talablardan biridir. Shuningdek, asosiy ma'lumot o'quvchi nigohining ekranga yo'nalishini e'tiborga olgan holda joylashtirilishi, matnning qorong'i fonda yorug', yorug' fonda esa qorong'i tarzda aks ettirilishi, aynan bir materialning turli shakllarda berilishi hamda ko'rgazmali materiallarning taqdim etilishi axborotlarni tinglab tushunish va ko'rish sezgilarini rivojlantirishga tegishli shart-sharoitlarni yaratadi.

## XULOSA

O'qituvchi va dasturchi o'rtasidagi ijodiy hamkorlik elektron qo'llanmaning DTS va o'quv dasturida ko'zda tutilgan talablarga muvofiq puxta, qiziqarli bo'lishi hamda o'quvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirishi maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchidan kompyuter dasturlarini yaxshi bilish, dasturchining esa o'quv materiallari mazmunini idrok etish darajasi yuqori bo'lishi talab etiladi.

Xulosa qilish mumkinki, boshlang'ich sinflarda bayon o'tkazish o'quvchilarning ona tili fanidan egallangan grammatik bilimlari va nutq madaniyati darajasini namoyon etsa, o'qish darslarida matnga singdirilgan ma'no-mazmun orqali ularning ma'naviy dunyosi ko'rkamlashadi hamda badiiy-estetik tafakkuri yuksaladi. Yozma ishlarga mo'ljallab yaratiladigan multimediali elektron qo'llanmalar ta'lim subyektlari o'rtasidagi dialoglarni muvaffaqiyatli tashkil etishga, axborotlarni audio va vizual tarzda taqdim etish nuqtai nazaridan samaradorligi bilan ahamiyatlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bakieva X.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. dok. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2020. – 44 b.
2. Zunnunov A., Turdiev B. Bayonlar to'plami. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 208 b.
3. Ikromova R. va boshq. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2020. – 160 b.
4. Isoilova M. Lotin tilini o'qitish jarayonida tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarini intellektual-madaniy rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 50 b.
5. Kambarova S. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi: Ped. fan. dok. (PhD) diss. – Samarqand, 2019. – 153 b.
6. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2021. – 663 b.
7. Matchonov S. va boshq. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo'l polygraph servis, 2020. – 160 b.
8. Melnikova Ye. Psixologicheskoe soprovozhdenie razvitiya tvorcheskogo voobrazheniya v usloviyakh sovremennogo obucheniya: Avtoref. diss. kand. psix. nauk. – Almati, 2011. – 56 s.
9. Muhamedova S.X., Yuldasheva Sh.Sh. Pedagogik dasturiy vositalar va til ta'limi // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent, 2016. – 113–116-b.
10. Muxitdinova X. Til ta'limiga videomateriallar qanday uyg'unlashadi? // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2015. – № 8. – 15–16-b.
11. Mo'minova O. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2019. – № 1. – 27–28-b.
12. Tursunmetov K.A., Begmatova D., To'rxonov F.B. Fizikadan pedagogik dasturiy vositalar yaratishdagi muammolar // Fizika, matematika va informatika. – Toshkent, 2013. – № 1. – 73-b.
13. Yuldasheva Sh. Interfaol diktant – savodxonlikni baholashning elektron tizimi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2019. – № 1. – 35–36-b.
14. Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. B harfi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, www.ziyouz.com kutubxonasi. – 300 b.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati. Z harfi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, www.ziyouz.com kutubxonasi. – 50 b.
17. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 402 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.